

ARAB TILIDA OLD KO'MAKCHILAR (PREDLOGLAR)

Mahmudova Sarvinoz Ilxomjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'naliishi 1-bosqich talabasi
makhmudovasarvinoz477@gmail.com

Umurzakova Oygu Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi
va amaliyoti kafedrasи o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada arab tilidagi old ko'makchilar (predloglar)ning grammatik funksiyalari, tuzilishi va turlari tahlil qilingan. Arab tili old ko'makchilari nafaqat sintaktik munosabatlarni ifodalashda, balki semantik jihatdan gapning ma'nosini boyitishda muhim rol o'yndaydi. Ushbu maqola arab tilini o'r ganayotgan talabalarga foydali bo'lishi mumkin.*

Kalit so'zlar va iboralar: arab tili (اللغة العربية), harf so'z turkumi (حرف), old ko'makchilar (حروف جر), qaratqich kelishigi (جر), qaratqich kelishigidagi so'z (مجرور), ravish (ظرف).

Аннотация. В данной статье анализируются грамматические функции, структура и виды предлогов (حروف جر) в арабском языке. Предлоги в арабском языке играют важную роль не только в выражении синтаксических связей, но и в обогащении семантического значения предложения. Эта статья может быть полезной для студентов, изучающих арабский язык.

Ключевые слова и фразы: арабский язык (اللغة العربية), часть речи "харф" (حرف), предлоги (حروف جر), родительный падеж (جر), слово в родительном падеже (مجرور), обстоятельство места и времени (ظرف).

Annotation. This article analyzes the grammatical functions, structure, and types of prepositions (حروف جر) in the Arabic language. Prepositions in Arabic play an important role not only in expressing syntactic relationships but also in enriching the semantic meaning of a sentence. This article can be useful for students learning the Arabic language.

Keywords and phrases: Arabic language (اللغة العربية), particle word class (حرف), prepositions (حروف جر), genitive case (جر), word in the genitive case (مجرور), adverbial phrase (ظرف).

Arab tili somiy tillar oilasiga mansub bo'lib, bugungi kunga kelib 400 milliondan ortiq inson tomonidan ona tili sifatida so'zlashiladi. Ushbu til nafaqat lingvistik, balki madaniy va diniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega, chunki u Islom dinining muqaddas tili hisoblanadi va Qur'an ham aynan arab tilida yozilgan.

Arab tilida so'zlar uch turkumga bo'linadi:

1. الاسم – ism. Ushbu turkum o'z ichiga o'zbek tilidagi ot, sifat, olmosh, son, ravish, fe'lning harakat nomi (masdarlar), sifatdosh kabi funksional formalari, ayrim ko'makchilar, modal so'zlarni qamrab oladi.

2. الفعل – fe'l. Bu turkumga fe'lning barcha zamonlari, mayllari, nisbatlari, bo'lishli va bo'lishsiz shakllari kiradi.

3. الحرف – harf. Bu turkumga aniqlik artikli, predloglar, turli xil yuklamalar, umuman yordamchi so'zlar kiradi.

Arab tilidagi old ko'makchilar (حروف الجر) gapda muhim grammatik elementlardan biri bo'lib, ular gap a'zolari o'rtasidagi sintaktik va semantik aloqalarni o'rnatishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu maqolada arab tilida mavjud bo'lgan old ko'makchilarning grammatik jihatlari, ularning turlari va ishlatalishi tahlil qilinadi.

Arab tilining boy va murakkab grammatikasi tilni o'ranuvchilar uchun qiziqarli va ayni paytda muammoli jihatlardan biri old ko'makchilar (predloglar), ya'ni harf-ul-jardir. Ularning qo'llanishi turli ma'no qatlamlarini ochib beradi. Yordamchi so'z turkumining kattagina qismini old ko'makchilar (predloglar) deb ataluvchi so'zlar tashkil etadi.

Arab tilida kelishiklar soni juda oz bo'lganligi sababli predmet, voqeа-hodisaning vaqtga, o'ringa munosabati, chegaralanish va boshqa turli munosabatlar asosan old ko'makchilar (predloglar) yordamida ifodalanadi. O'rin, payt, maqsad, sabab, vosita, birgalik kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan yordamchi so'z va old qo'shimchalar old ko'makchilar (predloglar) deb ataladi. O'zbek tilida old ko'makchilar (predloglar) o'zlari bog'lanib kelgan so'zdan keyin kelsa, arab tilida oldin keladi va shu jihatdan rus tilidagi predloglarga o'xshaydi. Old ko'makchilar (predloglar)ning umumiyligini xususiyati shundaki, ular qaysi so'zga bog'lanib kelsa, o'sha so'zni qaratqich kelishida bo'lishini taqozo qiladi. Old ko'makchilar (predloglar) yordamida so'zlar o'rtasida bog'liqlik va mantiqiy izchillik hosil qilinadi. O'zbek tilida ham old ko'makchilar (predloglar) ot va boshqa so'zlar o'rtasida bog'liqlikni hosil qiladi, lekin ular o'z mustaqil shakllarga ega emas. Arab tilidagi old ko'makchilar (predloglar) esa har doim qat'iy grammatik qoidalarga bo'ysunadi va harakatlar bilan belgilanadi.

O'zbek tilidagi arab tili grammatikasi kitoblarida old ko'makchilar (predloglar) tuzilishiga ko'ra uch guruhga bo'lib beriladi.

1. Asl old ko'makchilar (predloglar) (حروف الجر)

Mustaqil so'z shaklini yo'qotgan va faqat predlog sifatidagina ishlataladigan so'zlar asl predlodlardir. Ular quyidagilar:

- خرج الولد من البيت. – من – dan, o'rnidan; misol: *Bola uydan chiqdi*.
- ذهب الطالب إلى الجامعة. – إلى – ga, tomon; misol: *Talaba universitetga ketdi*.
- الكتاب على الطاولة. – على – ustida, yuqorisida; misol: *Kitob stol ustida*.
- التلميذ في الفصل. – في – ichida, da; misol: *O'quvchi sinfa*.
- سأله المعلم عن الدرس. – عن – haqida, dan; misol: *O'qituvchi dars haqida so'radi*.
- كتب الرسالة بالقلم. – بـ – bilan, orqali; misol: *Men xatni qalam bilan yozdim*.
- هذا الكتاب للطالب. – لـ – uchun, ga tegishli; misol: *Bu kitob talabaniki*.
- الأسد قوي كالجبار. – كـ – kabi, singari; misol: *Sher tog'lar kabi kuchli*.

2. Ot-predloglar. Ravishlar (الظروف)

Bu guruhga o'zining otlik xususiyatini yo'qotmagan, ot sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan, ravish vazifasida bo'lgan so'zlar kiradi. Bu so'zlar ravish vazifasida ishlatilganida ko'pincha tushum kelishigida keladi:

- داخل المدرسة – ichida, ichiga; misol: *maktab ichida*
- خارج البيت – tashqarida, tashqariga; misol: *uy tashqarisida*
- عبر الهواء – orqali; misol: *havo orqali*
- خلال العطلة – davomida; misol: *ta'til davomida*
- قرب النافذة – yaqinida; misol: *deraza yaqinida*
- أمام الوالدين – oldida; misol: *ota-onha oldida*

3. Murakkab predloglar

Bular ikki-uch so'zdan iborat bo'lib, yuqoridagi predloglarga nisbatan murakkabroq munosabatlarni ifodalaydi.

- لأجل ... ni deb, yo'lida;
- في سبيل ... ni deb, yo'lida;
- خوفاً من ... dan qo'rqib;
- بصرف النظر عن ... sababli;
- بالنظر إلى ... sababli;
- فضلاً عن ... yonida, yaqinida;
- في غضون ... ning davomida;

➤ **Old ko'makchilarining grammatik roli**

- ❖ Arab tilidagi old ko'makchilar so'zlarning boshqalar bilan bog'lanishiga xizmat qiladi.
- ❖ Gapda ular nafaqat sintaktik, balki semantik vazifalarni ham bajaradi, masalan, vaqt, joy, sabab va boshqalarni ifodalaydi.

➤ **Sintaksis va semantik jihatlar**

- ❖ Old ko'makchilar boshqaruvga (tashbeh, sabab, joy ifodalash) asoslangan bo'lib, ular keyingi so'zlarning qaysi holatda bo'lishini belgilaydi (masalan, jar majrur bo'lishi).
- ❖ Predoglarning ko'p ma'noli ishlatilishi, matn kontekstida ma'no niqobini o'zgartirishi مثلاً: إلى (إلى) sabab ma'nosida yoki yo'nalish ifodalash).

➤ **Arab tilining boshqa tillar bilan solishtirilishi**

- ❖ Arab tilidagi old ko'makchilarining ingliz va o'zbek tillaridagi predloglar bilan farqlari va o'xshashliklari o'rganilgan.
- ❖ Arab tilida ko'makchilar keyingi so'zlarning harakat va grammatik holatini bevosita boshqaradi, bu esa boshqa tillarda kuzatilmaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, arab tilidagi old ko'makchilar nafaqat sintaksisning muhim qismi, balki tilning semantik boyligini aks ettiruvchi unsurlar hisoblanadi. Ular grammatik jihatdan murakkab tizimga ega bo'lib, arab tilini o'rganayotganlar uchun diqqat bilan o'rganishni talab qiladi. To'g'ri ishlatilgan old ko'makchilar (predloglar) tilning aniqligini va ifodalangan fikrning ravonligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aripova Z. Arab tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2018.
2. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2019.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024, (91-93 betlar).
4. Wright, W. A Grammar of the Arabic Language. Cambridge University Press, 2011.
5. www.arabic.uz